

**TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY HAMDA ONLAYN O'QITISH
TIZIMINING SAMARADORLIGI VA UNING SALBIY JIHLTLARI.**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim*

Olimova Feruza Akbar qizi

Elektron pochta: gqgwgidfehdhd@gmail.com

Telefon raqam: 88 753 24 05

Annotasiya. So'nggi yillarda texnologiyalar va global pandemiyalar ta'lim tizimini sezilarli darajada o'zgartirib yubordi. An'anaviy o'qitish metodlariga masofaviy va onlayn o'qitishning kirib kelishi, butun dunyo bo'ylab ta'lim jarayonlarini o'zgartirishga olib keldi. Masofaviy ta'lim o'quvchilarning o'qish jarayonini an'anaviy sinf xonalaridan tashqarida, internet va boshqa raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan o'qitish usulidir. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli-masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi. Hozirgi kunga kelib bu ta'lim usuli kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu kabi o'quv jarayonlarini bir qancha ijobiy va salbiy holatlari mavjud. Ushbu maqolada masofaviy va online ta'lim tizimlarining samaradorligi va uning o'quvchilarga bo'lgan qiyinchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Masofaviy, online, internet, ta'lim, interaktiv, texnologik, an'anaviy, kadr, vidiodarlar, ijobiy, salbiy, kurslar, shaxsiy.

Har birimizga ma'lumki, XXI asr „Axborot texnologiyalar asri“ hisoblanadi. Mana shuning natijasida internet aloqalari, ommaviy axborot vositalari hamda texnologiyalar rivojlanib bormoqda va bu kabi omillar ijtimoiy hayotimizga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shunday ekan ta'lim tizimida ham sezilarli darajada o'zgartirishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda Oliy ta'lim muassasalarida, maktab va kollejlarda talabalarga zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim berilib, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan (AT) dan foydalanish, talabani ijodiy salohiyatini rivojlanishiga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'lim jarayonida talabani o'quv faoliyatini rivojlanishini, o'quv va tarbiya jarayonini takomillashuvini, ta'limning sifati va samarasini oshiruvchi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda masofaviy hamda onlayn o'qitish tizimi jadallik bilan rivojlanmoqda. Masofaviy o'qitish uslubi internet orqali mustaqil o'qish demakdir. Masofaviy ta'limning asosiy afzalliklaridan biri o'quvchilarga o'z vaqtlarini va joylarini mustaqil ravishda boshqarish imkoniyatini yaratishidir. Internet orqali ta'lim

olish ,o'quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan darslarni tinglash yoki qatnashish imkonini beradi. Bu ayniqsa ,chekka hududlarda yashovchi o'quvchilarga yoki jismoniy nuqsonlari bo'lganlar uchun muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarga bir nechta ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini yaratadi.Masalan,vidiodarslar , onlayn kitoblar, interaktiv dasturlar va forumlar. Uning yana bir afzalligi vaqtni tejashdir.O'quvchilar darslarni o'zlariga qulay vaqtda ko'rib chiqishlari mumkin, bu esa ularning shaxsiy va oilaviy hayotini muvozanatlashtirishga yordam beradi.Onlayn o'qitish tizimida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi interaktivlikni oshirish uchun turli platformalar, masalan, Zoom, Google classroom va Moodle kabi tizimlar foydalaniladi.Bu tizimlar, shuningdek, sinfda o'zaro muloqotni mustahkam qilish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning fikr va g'oyalarni yanada erkin ifodalashlariga yordam beradi.Masofaviy o'quv tizimlarida o'quvchilar o'zlarining o'rganish sur'atiga mos ravishda materiallarni ko'rib chiqishlari mumkin, bu esa ularga o'ziga xos yordam beradi va ularning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob beradi .Bu masofaviy o'qish tizimining samaradorligini oshiradi.Yoshi ulug' ,oilali hamda kichik yoshdagi farzandlari bor xotin -qizlar uchun ancha qulay jarayon hisoblanadi.Bir nechta kadrlar onlayn tarzda ,bir qancha kurslarda ta'lim olib o'z malakalarini yetarli darajada oshirishlari mumkin. Bunday ta'lim tizimida darsliklar, qo'llanmalar yetishmasligi kabi muammolar bo'lmaydi.Masofaviy ta'lim moddiy jihatdan pul mablag'larini ancha tejash imkonini beradi.

O'quvchilar o'zlarining shaxsiy jadvaliga mos ravishda o'qish vaqtlarini belgilashlari mumkin, bu esa ta'limni shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. O'qituvchilar ham bir vaqtning o'zida bir nechta o'quvchilarga vaqt ajratish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masofaviy ta'lim rivojlanishi orqali bir qancha iqtisodiy-ijtimoiy masalalar yechiladi:

- Xalqning ta'lim olish darajasi oshdi (9% dan 15 % ga);
- Oliy ta'limga olish imkoniyati o'sdi;
- Oliy ma'lumotga ega bo'lish ehtiyoji oshdi;
- Yo'nalishlar bo'yicha uzluksiz malaka oshirishni tashkil qilish ortdi.

Keyingi paytlarda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda.Bu borada elektron o'quv adabiyotlarini yaratish o'zining ijobiy pedagogik samaralarini bermoqda.Biroq, masofaviy va onlayn ta'lim tizimlari bir qator qiyinchiliklar va cheklovlarga ham ega. Birinchidan, texnologik cheklovlar muammosi mavjud. Internetga ulanish va kerakli texnik vositalar bo'lmagan o'quvchilar uchun onlayn ta'limga qatnashish imkonsiz bo'lishi mumkin.Masalan,chekka yoki iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan hududlarda yashovchi talabalar uchun internet tezligi past yoki internetga to'liq kirish imkoniyati yo'q.Bu holatlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan kirish imkoniyatlarini cheklaydi va ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin.

Ikkinchidan, masofaviy ta'limda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi an'anaviy ta'lim usullariga qaraganda past bo'lishi mumkin. Onlayn darslar va vidiomateriallar yordamida o'qish o'quvchilarning mustaqilligi va motivatsiyasiga ko'proq bog'liqdir. O'qituvchilarning doimiy nazorati va shaxsiy yordamiga ega bo'lmaslik, ba'zi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarga olib keladi. O'quvchilar ma'lum bir mavzularni tushunmasliklari yoki darslarda qatnasha olmasliklari mumkin, bu esa o'zlashtirish darajasini pasaytiradi. Yana bir muammolardan biri o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilishidir. Yashovchi talabalar uchun internet tezligi past yoki internetga to'liq kirish imkoniyati yo'q. Bu holatlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan kirish imkoniyatlarini cheklaydi va ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin. Ikkinchidan, masofaviy ta'limda o'quvchilarning o'zlashirish darajasi an'anaviy ta'lim usullariga qaraganda past bo'lishi mumkin. Onlayn darslar va vidiomateriallar yordamida o'qish o'quvchilarning mustaqilligi va motivatsiyasiga ko'proq bog'liqdir. O'qituvchilarning doimiy nazorati va shaxsiy yordamiga ega bo'lmaslik, ba'zi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarga olib keladi. O'quvchilar ma'lum bir mavzularni tushunmasliklari yoki darslarda qatnasha olmasliklari mumkin, bu esa o'zlashtirish darajasini pasaytiradi. Yana bir muammolardan biri o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy jihatdan izolyatsiya qilishidir.

Onlayn ta'lim o'quvchilarni ijtimoiy o'zaro aloqalardan ajratib qo'yishi mumkin. Natijada, professional kadr bo'lib yetisha olmaydi. Bir qancha sohalarga notiqlik sa'nati yaxshi rivojlangan mutaxassislar kerak bo'ladi. Sinfdagi do'stlar bilan muloqot qilish, guruhli ishlarda ishtirok etish va o'qituvchilar bilan bevosita muloqotda bo'lish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muhimdir. Masofaviy ta'lim bu imkoniyatlarni cheklaydi, natijada o'quvchilarning ruhiy holati sezilarli darajada pasayadi. Bu o'qitish tizimi o'quvchilar o'rtasida dankasalik holatlariga olib kelishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilar masofaviy ta'lim tizimiga moslashishi uchun yetarlicha tayyor emas, bu esa darslar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Masofaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qancha muhim omillarni inobatga olish zarur. Ta'lim resurslarining sifatini ta'minlash kerak. O'quvchilarga nafaqat vidiodarslar, balki interaktiv materiallar, mashqlar, testlar va o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan virtual seminarlar taqdim etilishi kerak. Bu o'quvchilarga mavzularni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchilarni ruhiy jihatdan rag'batlantirib turish kerak va kerakli vaqtda motivatsiya berish kerak. Bu tahsil olayotgan har bir o'quvchiga pozitiv kayfiyat beradi va o'qishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Har bir yumushni bajarish inson ruhiyatiga bog'liqdir. To'xtovsiz ravishda ularning o'zlashtirish darajasini kuzatib borish muhimdir. Bu ta'limda o'qituvchilar o'zaro aloqani mustahkamlash va o'quvchilarga doimiy yordam ko'rsatish uchun turli interaktiv metodlarni qo'llashlari

zarur. Shuningdek, ta'lim platfor-malarida o'quvchilarning faoliyatini muntazam baholab borishi shart.

Ba'zi tadqiqodlar onlayn ta'lim tizimining an'anaviy ta'limga nisbatan samaradorligini ta'kidlagan. Masalan, „Harvard“ va „Stanford“ universitetlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda onlayn darslar interaktiv va ko'proq individuallashtirilgan bo'lgani sababli, o'quvchilar ko'proq natijalar ko'rsatish mumkinligi aniqlangan. Xulosa qilib aytamanki, masofaviy va onlayn ta'lim tizimlari hozirgi ta'lim jarayonida o'zining muhim o'rnini egalladi. Ularning samaradorligi o'quvchilarga qulayliklar yaratishda, vaqtni tejashda va o'qitish jarayonini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biroq, texnologik cheklovlar, o'zlashtirishdagi pasayish kabi muammolar ham mavjud. Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun, o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish va texnologik imkoniyatlarni yaxshilash zarur. O'quvchi hech kimning ta'sirisiz mustaqil ravishda bilim olib, fikrlab va o'rgangan bilimlarini tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Moliyaviy jihatdan sinfxonalarga kerak bo'ladigan o'quv jihozlari talab qilmaydigan o'quv tizimi hisoblanadi. Yoshlarimizning texnikadan unumli foydalanish, bilim darajasini oshirishga yo'naltirilgan onlayn ta'lim biz yoshlar uchun keng imkoniyat eshiklarni ochib berdi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil ololmayotgan jamiyatning ma'lum qatlami endilikda, bemalol bilim darajasini anchagina oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Chet mamlakatlarga borib imtihon topshirish o'rniga uydan o'tirib onlayn tarzda imtihonlarga qatnashib, Oliy ta'lim grantini yutib olayotgan yoshlarimiz ham talaygina. Bu kabi rivojlanishlar albatta, masofaviy hamda onlayn ta'lim tizimining ijobiy jihatdan samaradorlik darajasi ko'p ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, Pedagogika, Fan, 2006, 456 bet.
2. M.Rahimboeva, Masofaviy o'qitish va „Moodle“ tizimida interaktiv testlarni tuzish asoslari, 2002, 66 bet.
3. S.X.Islikov, O'quv uslubiy majmua, 2020, 148 bet.
4. X.Atadjanov, Masofaviy ta'lim va uni boshqarish tizimlari.
5. Erkin o'g, Ne'matov Oybek. "INSON MA'NAVIY QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI." TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR 1.5 (2025): 395-401.
6. Erkin o'g'li, Nematov Oybek. "PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS 1.3 (2024): 147-150.